



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы:
современные педагогические подходы.....86
Родина Ирина Витальевна



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QISH DARSLARI SAMARADORLIGINI METODIK TAKOMILLASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi
 Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari hamda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion ta'lim muhitini yaratish, metodik kompetentlikni rivojlantirish va bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning samarali mexanizmlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari innovatsion metodlardan foydalanish o'qish darslarining samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, o'qish darslari, metodik kompetentlik, pedagogik imkoniyatlar, bo'lajak o'qituvchi, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities of preparing future primary school teachers for the methodological improvement of the efficiency of reading lessons based on an innovative approach. The theoretical and practical foundations of the use of a competency-based approach, modern pedagogical technologies, digital educational tools, and interactive methods in the higher education system are covered. The study identified effective mechanisms for creating an innovative educational environment, developing methodological competence, and improving the professional training of future teachers. The results of the study showed that the use of innovative methods serves to increase the efficiency of reading lessons, develop students' creative and critical thinking skills, and strengthen their professional competencies.

Key words: innovative approach, reading lessons, methodological competence, pedagogical opportunities, future teacher, interactive methods, digital technologies, professional training.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности подготовки будущих учителей начальной школы к методическому повышению эффективности учебных занятий на основе инновационного подхода. Рассмотрены теоретические и практические основы применения компетентностного подхода, современных педагогических технологий, цифровых образовательных инструментов и интерактивных методов в системе высшего образования. В исследовании выявлены эффективные механизмы создания инновационной образовательной среды, развития методической компетентности и повышения профессиональной подготовки будущих учителей. Результаты исследования показали, что использование инновационных методов способствует повышению эффективности учебных занятий, развитию творческого и критического мышления учащихся и укреплению их профессиональных компетенций.

Ключевые слова: инновационный подход, уроки чтения, методическая компетентность, педагогические возможности, будущий учитель, интерактивные методы, цифровые технологии, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va zamonaviy pedagogik paradigmalarning rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilardan faqat nazariy bilim emas, balki innovatsion faoliyatni amalga oshirish, yangi metodlarni amaliyotga tatbiq etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish darslari o'quvchilarning savodxonligini shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, kitobxonlik kompetensiyasini tarkib toptirish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari

rini o'qish darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga tayyorlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar pedagogik faoliyatning mazmuni va mohiyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi hamda ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelga o'tishi o'qituvchi kasbiga qo'yilayotgan talablarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini ilmiy asosda loyihalashtira oladigan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlaydigan, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda metodik faoliyatni tashkil etadigan hamda ta'lim samaradorligini uzluksiz monitoring qiladigan mutaxassis sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish fanining o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu fan o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun zarur bo'lgan funksional savodxonlikning asosini yaratadi. O'qish darslari orqali nafaqat matnni o'qish va tushunish kompetensiyasi, balki tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati, axborotni tahlil qilish, estetik did va kitobxonlik madaniyati ham shakllanadi. Shu sababli mazkur fan bo'yicha darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishga qodir bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kun pedagogikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fanida innovatsion yondashuv tushunchasi ta'lim jarayoniga yangicha g'oya, texnologiya, metod va tashkiliy mexanizmlarni joriy etish orqali mavjud didaktik tizimni takomillashtirishni anglatadi. Mazkur tushuncha faqat yangi texnik vositalardan foydalanishni emas, balki pedagogik tafakkurning yangilanishini, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikning yangi modelini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, bilim tayyor shaklda uzatilmaydi, balki ta'lim oluvchining faol bilish jarayonida mustaqil ravishda quriladi. Shu jihatdan qaralganda, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash ularning metodik kompetentligini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi pedagogika fanida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Lev Vygotsky ta'limning ijtimoiy tabiati va yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi orqali o'quvchilarning faol hamkorlik asosida bilimlarni egallashini asoslab bergan. Jean Piaget esa bilimlarning o'quvchi tomonidan faol ravishda qurilishini ta'kidlab, konstruktivistik yondashuvning nazariy asoslarini rivojlantirgan. John Dewey ta'limni amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda muammoli ta'limni tashkil etish g'oyalarini ilgari surgan.

Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari Philippe Perrenoud hamda Linda Darling-Hammond tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi nafaqat fan bo'yicha bilimga, balki metodik, refleksiv va innovatsion kompetensiyalarga ham ega bo'lishi zarur.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslarini tashkil etishga tayyorlash metodik kompetentlikni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kompleks yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ta'limning zamonaviy paradigmalari, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda pedagogik innovatika nazariyalari tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etishga imkon beradi. Tadqiqotda metodologik tamoyillar pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari va metodlarini o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilishga xizmat qildi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlash murakkab, ko'p komponentli va dinamik pedagogik jarayon sifatida qaraldi.

Pedagogika fanida metodologiya ilmiy bilishning nazariy asoslarini, tadqiqotning konseptual yo'nalishini va ilmiy izlanishning mantiqiy tizimini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda metodologik yondashuvning tanlanishi bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishni zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'un holda izohlash imkonini berdi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik negiz sifatida tanlandi, chunki ushbu yondashuv pedagogik ta'limning natijasini bilimlar yig'indisi bilan emas, balki kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi kompetensiyalar tizimi bilan



baholashni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida metodik tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchining o'quv jarayonini ilmiy asosda loyihalash, didaktik vositalarni tanlash, ta'lim texnologiyalarini maqsadga muvofiq qo'llash hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning metodologik asoslaridan yana biri konstruktivistik ta'lim nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilim o'quvchiga tayyor holda berilmaydi, balki uning faol bilish jarayonida mustaqil ravishda shakllanadi. Shu sababli innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish darslari o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni ana shunday pedagogik faoliyatga tayyorlash esa metodik tayyorgarlik mazmunini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etadi. Bu jarayonda talabalar faqat metodlarni o'zlashtiruvchi subyekt emas, balki pedagogik faoliyatni loyihalashtiruvchi va tahlil qiluvchi faol ishtirokchi sifatida qaraladi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini pedagogik innovatika konsepsiyasi ham tashkil etdi. Pedagogik innovatika ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan yangiliklarning paydo bo'lishi, joriy etilishi, rivojlanishi va amaliyotga tatbiq etilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Innovatsion faoliyat pedagogning yangi pedagogik g'oyalarni yaratish, mavjud metodlarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish kabi faoliyatlarini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan metodik kompetentlik innovatsion kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot tizimli yondashuv tamoyillariga ham asoslandi. Tizimli yondashuv bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorlash jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va natijadan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois innovatsion yondashuvni joriy etish faqat yangi metodlardan foydalanish bilangina emas, balki metodik tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlarini kompleks ravishda takomillashtirish bilan bog'liq ekanligi asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, modellashtirish, pedagogik umumlashtirish hamda ilmiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, metodik shart-sharoitlari va didaktik mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida metodik kompetentlikning mazmuni, tuzilishi va funksional komponentlari aniqlashtirildi hamda o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishning nazariy modeli ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, pedagoglarning kasbiy va metodik kompetentligiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish darslari o'quvchilarning keyingi o'quv faoliyatini belgilovchi asosiy fanlardan biri hisoblanganligi sababli mazkur fan bo'yicha darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishga qodir mutaxassislarni tayyorlash alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazariy tahlillar natijasida aniqlandiki, metodik kompetentlik faqatgina fan metodikasiga oid bilimlar yig'indisini emas, balki pedagogning o'quv jarayonini loyihalash, ta'lim mazmunini didaktik jihatdan qayta ishlash, innovatsion texnologiyalarni tanlash, ularni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish hamda ta'lim natijalarini tahlil qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Demak, metodik kompetentlik integrallashgan kasbiy sifat sifatida bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur holat pedagogik innovatika nazariyasida ilgari surilgan qarashlar bilan hamohang bo'lib, innovatsion pedagogik faoliyatning samaradorligi metodik tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar innovatsion yondashuvning metodik tayyorgarlikka ko'rsatadigan ta'siri ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Avvalo, innovatsion yondashuv pedagogik jarayonda o'qituvchining rolini o'zgartiradi. An'anaviy ta'lim modelida o'qituvchi bilimlarni tayyor holda uzatuvchi subyekt sifatida qaralsa, innovatsion ta'lim modelida u ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi, tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va refleksiv faoliyatni boshqaruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltiradi. Jumladan, ular pedagogik vaziyatlarni tahlil qila olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni tanlay olishi hamda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal eta olishi zarur.

Nazariy tahlillar natijasida aniqlanishicha, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan metodik tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Refleksiv kompetentlik pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik qarorlarining samaradorligini baholash hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan kasbiy sifatlarni shakllantiradi. Aynan refleksiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishini uzluksiz davom ettirish imkonini beradigan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois metodik tayyorgarlik mazmuniga refleksiv topshiriqlar, pedagogik vaziyatlar tahlili va kasbiy muammolarni yechishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni kiritish bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuv o'qish darslarining metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qish darslari mazmuniga integratsiya qilish o'quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada o'qish darslarining samaradorligi faqat o'qish texnikasining rivojlanishi bilan emas, balki funksional savodxonlik, kommunikativ kompetensiya va ijodiy fikrlashning shakllanishi bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim muhitini yaratish muhim pedagogik imkoniyat ekanligini ham ko'rsatdi. Innovatsion ta'lim muhiti talabning mustaqil izlanishi, ilmiy fikrlashi, metodik muammolarni hal etishi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday muhitda talaba o'zining kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil belgilash, pedagogik tajribalarni tahlil qilish va zamonaviy metodlarni amaliyotga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa metodik tayyorgarlikning mazmunini reproduktiv o'qitishdan ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim platformalari, elektron ta'lim resurslari, multimediyaviy vositalari va sun'iy intellekt elementlariga asoslangan dasturlar o'qish darslarini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar pedagogning metodik faoliyatini optimallashtirish, ta'lim natijalarini monitoring qilish va o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Natijada innovatsion texnologiyalar metodik kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanadi.

Olingan natijalar xalqaro pedagogik tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan ham mos keladi. Kompetensiyaviy yondashuv tarafdorlari pedagogik ta'limning asosiy maqsadi nazariy bilimlarni egallash emas, balki murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassisni tayyorlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Konstruktivistik ta'lim nazariyasida esa o'quv jarayonining markazida bilimlarni mustaqil quruvchi shaxs turishi qayd etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ham aynan shu ilmiy g'oyalarni tasdiqlaydi va bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion metodik faoliyatga tayyorlashda shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlarning ustuvorligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari asosida aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha omillar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillar metodik kompetentlikni rivojlantirish, refleksiv pedagogik tafakkurni shakllantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish, pedagogik faoliyatni loyihalash hamda zamonaviy didaktik vositalardan samarali foydalanish jarayonida yuzaga chiqadi. Mazkur imkoniyatlardan tizimli ravishda foydalanish nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga, balki boshlang'ich ta'limda o'qish darslari sifatini oshirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish va ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'qish darslari o'quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi sababli mazkur fan bo'yicha pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yiladi.

Nazariy tahlillar asosida innovatsion yondashuv pedagogik jarayonni yangicha tashkil etishning muhim vositasi ekanligi aniqlandi. Innovatsion yondashuv metodik tayyorgarlikning mazmunini faqat nazariy bilimlarni



o'zlashtirish bilan cheklamay, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muammolarni mustaqil hal etish, ta'lim jarayonini loyihalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tanlash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Shu jihatdan metodik kompetentlik kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, konstruktivistik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lishi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish, refleksiv faoliyatini shakllantirish, metodik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada pedagogik ta'limning mazmuni reproduktiv bilimlarni o'zlashtirishdan ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish bosqichiga o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23 sentyabr 2020 yil.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005.
5. Egamberdiyeva N.M. Pedagogika nazariyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2014.
7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish texnologiyasi. - Toshkent: Fan, 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.